XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m*		*O‘sish sur’ati, %*
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**3068,2**	**3649,3**	**118,9**
shu jumladan:			
Urganch sh.	4087,8	4938,6	120,8
Xiva sh.	2513,5	2913,3	115,9
Bog‘ot	2444,1	2947,0	120,6
Gurlan	2369,4	2695,7	113,8
Qo‘shko‘pir	2384,0	2755,8	115,6
Urganch	2671,4	3173,1	118,8
Hazorasp	2258,6	2710,2	120,0
Tuproqqal’a	4186,6	5087,1	121,5
Xonqa	2676,2	2969,9	111,0
Xiva	2487,1	2854,0	114,8
Shovot	2417,2	2864,3	118,5
Yangiariq	3139,4	3500,4	111,5
Yangibozor	2204,1	2513,6	114,0

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida 5 087,1 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 139,4 %), Urganch shahrida 4 938,6 ming so‘mni (135,3 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 513,6 ming so‘mni (68,9 %), Gurlan tumanida 2 695,7 ming so‘mni (73,9 %), Hazorasp tumanida 2 710,2 ming so‘mni (74,3 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-sentabrida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Sohalar nomi	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- sentabr)*		*O‘sish sur’ati, %*
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**3068,2**	**3649,3**	**118,9**
shu jumladan:			
Sanoat	3496,3	4107,8	117,5
Qurilish	3035,0	3474,0	114,5
Savdo	2239,6	2780,4	124,1
Tashish va saqlash	6508,5	7084,2	108,8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1727,7	2101,9	121,7
Axborot va aloqa	3915,2	7487,2	191,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	8528,4	10 610,3	124,4
Ta’lim	2464,3	2891,1	117,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2643,8	3207,4	121,3
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2267,3	2642,8	116,6
Boshqa faoliyat turlari	3508,9	4153,2	118,4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3649,3 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 18,9 % ga o‘sishi kuzatildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati axborot va aloqada – 91,2 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 24,4 %, savdoda – 24,1 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 21,7 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 21,3 %, sanoatda – 17,5 %, san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda – 16,6 %, qurilishda – 14,5 %, tashish va saqlash faoliyatida – 8,8 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati

(2023- yil yanvar-sentabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar- sentabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2023- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4107,8 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, huddi shu davr 2019- yilda 2615,1 ming so‘mni, 2020- yilda 2599,4 ming so‘mni, 2021- yilda 2932,4 ming so‘mni, 2022- yilda 3496,3 ming so‘mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 157,1 % darajada ko‘paygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*

4014,0

Ishlab chiqarish sanoati

2167,4

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

5890,0

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha 2023- yil yanvar-sentabr oylarida o‘rtacha oylik ish haqi ishlab chiqarish sanoatida – 4014,0 ming so‘mni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 2167,4 ming so‘mni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda - 5890,0 ming so‘mni tashkil qilgani ko‘rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni

(2023- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi

Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-sentabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



ming so‘m — *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, % da*

Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o‘rtacha oylik ish haqi.

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	***Ish haqi fondi, mln so‘m***	***Ortacha oylik ish haqi, ming so‘m***
	2023- y.	***2023- y.***	***2023- y.***
Xorazm viloyati – jami:	**140 087**	**4 600 927,1**	**3 649,3**
shu jumladan:			
Sanoat	20 303	766 884,0	4 107,8
Qurilish	2 186	80 844,4	3 474,0
Savdo	1 163	29 758,0	2 780,4
Tashish va saqlash	3 892	248 568,7	7 084,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	69	1 305,3	2 101,9
Axborot va aloqa	879	60 175,9	7 487,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2 652	269 140,1	10 610,3
Ta’lim	63 464	1 679 423,4	2 891,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 565	744 447,3	3 207,4
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1 963	47 450,9	2 642,8
Boshqa faoliyat turlari	17 951	672 929,1	4 153,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, **sanoatda** -20 303 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 766 884,0 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 107,8 ming so‘mni, **qurilishda** – 2 186 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 80 844,4 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 474,0 ming so‘mni, **savdoda** -1 163 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 29 758,0 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 780,4 ming so‘mni, **tashish va saqlashda** – 3 892 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 248 568,7 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 084,2 ming so‘mni, **axborot va aloqada** - 879 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 60 175,9 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 487,2 ming so‘mni, **moliyaviy va sug‘urta faoliyatida** - 2 652 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 269 140,1 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 610,3 ming so‘mni, **ta’limda** -63 464 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 679 423,4 mln. so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 891,1 ming so‘mni, **sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 565 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 744 447,3 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 207,4 ming so‘mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2023-yilning yanvar-sentabrida o‘rtacha oylik ish haqi

3 892
Xodimlar soni, kishi

248 568,7
Ish haqi fondi, mln. so‘m

7 084,2
O‘rtacha ish haqi, ming so‘m

Ta’lim faoliyati bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-sentabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar nomi	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m*	*Viloyatga nisbatan foizda*
Xorazm viloyati	**2 891,1**	**100,0**
shaharlar:		
Urganch. sh	4 208,9	145,6
Xiva. sh	2 780,8	96,2
tumanlar:		
Bog‘ot	2 728,7	94,4
Gurlan	2 471,3	85,5
Qo‘shko‘pir	2 404,5	83,2
Urganch	2 632,0	91,0
Hazorasp	2 498,9	86,4
Tuproqqal’a	2 458,6	85,0
Xonqa	2 828,4	97,8
Xiva	2 515,4	87,0
Shovot	2 638,3	91,3
Yangiariq	3 165,0	109,5
Yangibozor	2 394,5	82,8

Ta’lim sohasida jami 63 464 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 45,3 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 891,1 ming so‘mni tashkil etgan va 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga o‘sdi.

Ta’lim faoliyati bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-sentabrida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Ta’limda shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 4 208,9 ming so‘mni (viloyatdagi ta’limning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,6 %), Yangiariq tumanida 3 165,0 ming so‘mni (109,5 %) tashkil etgan bo‘lsa, Tuproqqal‘a tumanida 2 458,6 ming so‘mni (85,0 %), Qo‘shko‘pir tumanida 2 404,5 ming so‘mni (83,2 %), Yangibozor tumanida 2 394,5 ming so‘mni (82,8 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.